

---

## RISHTONLIK PAXTAKORLAR ZAFAR MARRASINI ZABT ETDILAR

Bugun Rishtonda katta bayram! So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida, xususan, paxtachilikda o'ziga xos tajriba maktabi yaratgan Rishtonlik paxtakorlar 10 oylik tinimsiz mehnatlarining samarasi o'laroq, 21 ming tonnadan ortiq paxta xom-ashyosi yetkazib berishib, Klaster bilan tuzilgan shartnomaviy rejani bajardilar. Hudud fermer va dehqonlarining yil bo'yi qilgan mehnatlari samarasida tumandagi paxta ekilgan 5 ming 950 gektar maydondan 21100 tonnadan ortiq hosil yig'ishtirib olindi. Xususan, 150 dan ortiq fermer xo'jaligi bugungi kunga qadar belgilangan shartnomaviy rejani sharafla ado etishda boshqalarga ibrat namunasini ko'rsatdilar. Paxta xirmonini bunyod etishda rejadan yuqori hosildorlikga erishib peshqadamlik qilgan «Ixtiyor SMIK», «Solijon xoji», «Nazirbobo Ramzanbek», «Shoxruxbek Mamandar», «Yaproq ildizlari», «Xoliqov Yo'lchiboy», «O'n og'a ini», «Amirobod Javoxiri», «Roshidon Sarboni» kabi o'nlab fermer xo'jaliklari alohida e'tirof va e'tiborga loyiqdir. Qo'lga kiritilgan yutuqlar shuni anglatadiki, bugun Rishtonliklar o'zlarining har sohada hamjihat, hammaslak, qolaversa, xalqimiz dasturxonining to'kinligi yo'lida fidoyi ekanliklarini yana bir ko'rsatdilar. Ayni damda tumanimizning qay bir hududiga razm solmang, katta to'yu tantanaga guvoh bo'lasiz. Istagimiz, mana shu xursandchilik bardavom bo'lsin! Har bir kunimiz xushxabarlarga boy o'tsin! Zafaringiz muborak bo'lsin, Rishtonlik paxtakorlar!

2022-11-11 17:15:00